



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSANOAT MAJMUASINING BARQAROR RIVOJLANISHI TA'MINLASH.

Eshev Alibek Sabirovich

Professor Qarshi Davlat Texnika Universiteti

eshevalibek@gmail.com

Dilnavoz Bahromova Azamatovna

Qarshi Davlat Texnika Universiteti talabasi

dilnavozbahromova35@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun ekologik va iqtisodiy omillar uyg'unligi zarurligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va iqtisodiy siyosatning o'rni batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirishda agrosanoat sohasidagi muhim yo'nalishlarni belgilab beradi.

Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslar, innovatsion texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy siyosat.

Kirish. Bugungi kunda global ekologik muammolar va iqlim o'zgarishi insoniyat oldida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuasi barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. So'nggi yillar ichida "yashil" iqtisodiyot g'oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonida bu masalaga ko'p bora to'xtalib kelinayotganligi "yashillashtirish" siyosatiga bo'layotgan jiddiy e'tibor bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko'rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarni olishda tabiatga "murojaat qilish" ham ko'payib bormoqda.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy quvvatini, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Bu e'tiborning natijasi o'laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasi tarmoq hamda korxonalari faoliyatini



yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilib borilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida mamlakat iqtisodiyotida katta sifat o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, mulkiy munosabatlar takomillashti va bu holat agrar sohada nodavlat sektorining tez rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 99,0 foizidan ortiqrog'i nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan fermer, dehqon va shirkat xo'jaliklari shaklida tashkil etildi, bozor talablari va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqirishning tarkibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi, Aholining don mahsulotlariga bo'lgan talabini hisobga olib g'allachilik tarmog'i keskin kengaytirildi. Natijada g'allachilik bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan maxsus tizim (tarmoq) vujudga keldi. G'alla urug'chiligi keng yo'lga qo'yildi, g'allachilikning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan zarur moddiy – texnika bazasi yaratildi. Respublikada chorvachilik tarmog'i deyarli xususiylashtirildi. Mamlakatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi va ularni eksport qilish masalalari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobiy hal qilinmoqda.

Tadqiqot uslublari. Yashil iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan keng qamrovli yondashuvlarni talab etadi. Ushbu tadqiqotda quyidagi uslublardan foydalanildi:

1. Teoretik tahlil uslubi. Agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishiga oid nazariy manbalar, xalqaro tajribalar va ilmiy tadqiqotlar o'rganilib, yashil iqtisodiyot tamoyillarining mohiyati va ularning qishloq xo'jaligiga ta'siri aniqlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" va "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi" kabi hujjatlarning mazmuni tahlil qilindi.

2. Statistik tahlil uslubi. O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi asosiy ko'rsatkichlar, shu jumladan, suv resurslaridan foydalanish, energiya iste'moli, organik mahsulot ishlab chiqarish hajmi va qishloq xo'jaligi eksporti bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Masalan, 2023-yilda mamlakatda sug'oriladigan yerlarning 70% suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida unumdorligini yo'qotayotgani, bu esa barqaror rivojlanish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

3. Eksperiment usuli. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Masalan, 2022-yilda Toshkent viloyatida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish natijasida suv iste'moli 40%ga qisqarib, paxta hosildorligi 30%ga oshgani qayd etildi.

Ilmiy ishning natijasi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy va amaliy natijalar qo'lga kiritildi. Ushbu natijalar quyidagilardan iborat:

1. Ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan samarali foydalanish. O'zbekiston qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past darajada bo'lib, bu resurslarning 40–50% yo'qotilishi aniqlangan. Tadqiqot davomida tomchilatib sug'orish,





yomg'irlatib sug'orish kabi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi orqali suvdan foydalanish samaradorligini 30–40%ga oshirish mumkinligi isbotlandi. 2022-yilda Xorazm viloyatida o'tkazilgan tajribalar natijasida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish orqali paxta va g'alla hosildorligini mos ravishda 25% va 20%ga oshirishga erishilgan.

2. Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish. O'zbekistonda organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha salohiyat yuqori bo'lsa-da, uning ulushi umumiy ishlab chiqarishda atigi 1,5%ni tashkil etadi. Tadqiqot natijasida Toshkent viloyatida 2021–2023-yillar oralig'ida organik o'g'itlardan foydalanish natijasida mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalar amalga oshirilgan. Ushbu yondashuv tuproq unumdorligini 20%ga oshirgan va mahsulotlarning xalqaro standartlarga javob berishini ta'minlagan.

3. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning ayrim hududlarida (masalan, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida) yerlarning sho'rlanish darajasi yuqori. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish zarurligini ko'rsatadi. Natijalarga ko'ra, sho'rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish va ekologik muhofaza choralari qo'llash orqali ushbu hududlarda tuproq unumdorligini 15–20%ga oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish salohiyati. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozor talablari va yashil standartlarga mosligini ta'minlash maqsadida eksportni kengaytirish yo'nalishlari ishlab chiqildi. Jumladan, 2023-yilda organik mahsulotlar eksporti hajmi 10%ga oshgan bo'lib, asosan Rossiya va Yevropa davlatlariga eksport qilingan. Bu natijalar xalqaro ekologik sertifikatlarni qo'lga kiritish orqali eksportni yanada kengaytirish imkoniyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish va organik mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bu yo'nalishdagi asosiy ustuvorliklar ekanligi isbotlandi. Mazkur natijalar mamlakat iqtisodiy siyosatining dolzarb yo'nalishlarini belgilashga ko'maklashadi.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va inson hayot sifati yaxshilanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega. Ammo bu yo'nalishda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi uchun ishlatilayotgan suvning katta qismi yo'qotilmoqda, bu esa yerlarning sho'rlanishiga va hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish orqali suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish va yerlarning unumdorligini tiklash mumkin. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish qishloq xo'jaligi tarmoqlarining



energiyaga bo'lgan ehtiyojini qoplashga yordam beradi. Jumladan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish energiya iste'molini kamaytirish va mahsulotlarning tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa qishloq xo'jaligi sohasining raqobatbardoshligini oshiradi. Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish mamlakatning xalqaro bozor talablariga javob beradigan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirish imkonini beradi. O'zbekistonning organik mahsulotlar bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun xalqaro ekologik standartlarga javob beruvchi texnologiyalarni keng joriy qilish zarur. Shu bilan birga, organik o'g'itlardan foydalanish orqali tuproq unumdorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. Bu jarayonda ekologik va iqtisodiy omillarning uyg'unligi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillarni hayotga tatbiq etish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlar talablariga javob berishini ta'minlash bilan birga, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ekologik xavfsizligini mustahkamlaydi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2012.- 380 b.
2. M.S.Yusupov. Agrosanoat integratsiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya", 2015, - 400 bet.
3. Xusanov R.X. Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti: (to'ldirilgan ikkinchi nashri. O'quv qo'll.).-T.: Quvasoy, 2003.-771 b.
4. O'zbekiston Respublikasi "Er kodeksi", O'zbekiston Respublikasi «Er kodeksi» va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari, Toshkent, «Adolat», 1999.
5. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2004 yil 26 avgustdagi «Ferma xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni, «Xalq so'zi» gazetasi, 2004 yil 15 oktyabr
6. www.ecfak.timacad.ru
7. www.Lex.uz
8. www.ziyonet.uz